


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI  
MAKTABGACHA VA MAK TAB TA'LIMI VAZIRLIGI**

**70110901- Xorijiy til va adabiyoti  
magistratura mutaxassisligining**

**MALAKA TALABI**

**Toshkent-2024**



**ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:**  
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti.

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining  
2024-yil «1» 08 dagi 227-sonli buyrug‘i bilan.

**JORIY ETILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda  
Maktabgacha va maktab ta’lim vazirligi.

Mazkur Malaka talabi “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar ta’lim vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

| T/r   | bet |
|---|-----|
| <b>1. Umumiy tavsifi .....</b>                                | 4   |
| 1.1. Qo‘llanish sohasi.....                                   | 4   |
| 1.1.1. Malaka talabining qo‘llanilishi .....                  | 4   |
| 1.1.2. Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari .....       | 4   |
| 1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi .....                    | 4   |
| 1.2.1. Kasbiy faoliyatning sohalari .....                     | 4   |
| 1.2.2. Kasbiy faoliyatlarning obyektlari .....                | 5   |
| 1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari.....                   | 5   |
| 1.2.4. Kasbiy vazifalari .....                                | 5   |
| <b>2. Kasbiy kompetensiyalarga qo‘yiladigan talablar.....</b> | 6   |
| <b>3. Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.....</b>            | 8   |
| <b>4. Fanlar katalogining tuzilishi.....</b>                  | 9   |
| <b>Bibliografik ma’lumotlar .....</b>                         | 10  |
| <b>Kelishuv varog‘i .....</b>                                 | 11  |

## **1. Umumiy tavsifi**

70110901- Xorijiy til va adabiyoti magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistratura tayyorlash milliy malaka ramkasi, kasb standartlari, kadrlar buyurtmachilari talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi. Mutaxassislik bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining me'yoriy muddati 2 yil. Magistratura o'quv dasturining hajmi ta'lim shakli (kunduzgi), foydalaniladigan ta'lim texnologiyalaridan qat'iy nazar 120 kredit birligini tashkil etadi.

Bir o'quv yili uchun magistratura ta'lim dasturining hajmi 60 kreditni tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-maydag'i PF-81-son Farmoniga ko'ra, 70110901 – Xorijiy til va adabiyoti mutaxassisligi magistraturasida o'qish uchun kamida **C1** darajadagi milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikat talab etiladi.

### **1.1. Qo'llanish sohasi**

#### **1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.**

Malaka talabi 70110901- Xorijiy til va adabiyoti magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talabining asosiy foydalanuvchilarini:**

**70110901- Xorijiy til va adabiyoti magistratura mutaxassisligi** bo'yicha fan, texnika va ijtimoiy soha yutuqlarini hisobga olgan holda o'quv reja va fan dasturlarini sifatli ishlab chiqish, samarali amalga oshirish va yangilash uchun mas'ul oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilar;

magistratura mutaxassisligining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalari;

magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan baklavriat bitiruvchilar va boshqa manfaatdor shaxslar.

## **1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi**

### **1.2.1. Kasbiy faoliyatlarining sohalari:**

70110901- Xorijiy til va adabiyoti magistratura mutaxassisligi – qo'shimcha ravishda oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o'qitish, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot institatlari, markazlari, ilmiy ishlab chiqarish birlashmalarida ilmiy tadqiqot faoliyatini yuritish, mos ta'lim yo'naliishlari bo'yicha ta'limni amalga oshiruvchi vazirliklar, uning

tarmoq boshqarmalari va muassasalarida jarayonni loyihalashtirish, shuningdek sohani rivojlantirishda xavfsizlikni ta'minlash, istiqbolni belgilashga, kasbiy ko'nikmaga, mutasaddilik qobiliyatiga yo'naltirilgan inson faoliyatining vositalari, usullari, metodlari va uslublarini qamrab oladi.

Xorijiy til va adabiyoti ta'lim yo'nalishlariga mos bo'lган barcha tashkilotlarda, vazirliklar, uning tarmoq boshqarmalari va muassasalarida jarayonni loyihalashtirish va boshqarish kabi kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

### **1.2.2. Kasbiy faoliyatlarning obyektlari:**

oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim, umumiy o'rta, mактабгача ta'lim muassasalari;

Fanlar Akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlari; ta'lim sifatini monitoring qilish bo'limlari.

### **1.2.3. Kasbiy faoliyatlarning turlari:**

*ilmiy-pedagogik tadqiqot;*

*ma'naviy-ma'rify;*

*tashkiliy-boshqaruv;*

Mutaxassislik bo'yicha tayyorlangan magistrlar kasbiy faoliyatlarining muayyan turlari ta'lim jarayonining manfaatdor ishtirokchilari bilan hamkorlikda oliy ta'lim muassasasi tomonidan aniqlanadi.

### **1.2.4. Kasbiy vazifalari:**

70110901- Xorijiy til va adabiyoti mutaxassisligi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darjasи hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq magistr bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

#### **Ilmiy-pedagogik faoliyatda:**

pedagogik odob talablariga amal qilish, ta'lim oluvchilar bilan hamkorlik va ularning muvaffaqiyat qozonishlaridan manfaatdor bo'lish;

ta'lim oluvchilarda o'quv-bilish faoliyatiga doir ijobiy sifatlar, qiziqish, ijodiy tashabbuskorlik va faollikni shakllantirish hamda rivojlantirish;

ta'lim oluvchilarning idrok etish imkoniyatlari darajasini o'rganish, hisobga olish, "rivojlanishning yaqin zonasini loyihalashtirish", "o'zib ketish" darajasidagi o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish;

ta'lim oluvchilarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishini ta'minlash maqsadida ta'lim-tarbiya shakl, metod va vositalarini hamda ta'lim texnologiyalarini oqilona tanlash va samarali qo'llash;

ta'lim oluvchilarni maxsus leksikografiya, terminografiya va terminshunoslikning nazariy va amaliy jihatlari bilan tanishtirish, shuningdek terminologik lug'atlarni tuzishda amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish;

ta'lim oluvchilarning kasbiy faoliyatlarida pedagogik matnlarni tarjima qilish, tahlil va tahrirlash ko'nikmalarini rivojlantirish;

ta'lim oluvchilarning o'zlashtirilayotgan o'quv dasturlari bilan bog'liqlikdagi bilish imkoniyatlari, ehtiyojlari va muvaffaqiyatlarini o'rganish va olingan natijalar asosida ta'lim, tarbiya va rivojlanishning individual yo'nalishlarini loyihalashtirish;

ta'lism va tarbiya jarayonini ta'lism oluvchilarning yosh hamda psixofiziologik xususiyatlariga, shu jumladan ularning ta'limiy ehtiyojlariga mos keluvchi pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda tashkil etish;

pedagogik jamoa, ota-onalar, davlat va nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlikni tashkil etish;

kasbiy o'z-o'zini tarbiyalash va rivojlantirish.

pedagoglarning kasbiy ehtiyojlari hamda imkoniyatlarini o'rganish va tahlil qilish hamda olingan natijalar asosida individual metodik qo'llab-quvvatlash tizimini loyihalashtirish;

pedagoglarning hamkorlikdagi metodik faoliyati natijalarini amalda qo'llanishini tadqiq etish, tashkil etish va baholash;

ta'limiy dasturlarni va ta'lim oluvchilarning individualligini rivojlantirish yo'llarini loyihalashtirish;

o'quv fanlari mazmuni, nazorat shakl va metodlarini hamda didaktik-korreksion materiallarini loyihalashtirish;

o'qitish jarayoni sifatini ta'minlovchi ta'limiy muhitni loyihalashtirish;

bo'lg'uchi pedagogik faoliyatni loyihalashtirish;

manbalarga asoslangan holda, innovatsion va fundamental tadqiqotlar olib borish, sohaning nazariy va amaliy muammolarini bilish, davr uchun dolzarb, hal etilishi lozim bo'lgan va takomillashtirish talab etiladigan yo'nalishlarga doir mavzularni aniqlay olish;

ilmiy-tadqiqotlarni o'tkazish va yangi ilmiy hamda amaliy natijalarni olish;

zamonaviy tadqiqot metodlari va metodologiyasi, ta'lim-tarbiyaga doir nazariyalar, konsepsiylar, ilg'or tajribalardan foydalanish;

ilmiy muammolarni hal etishning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish;

manbaalarga asoslangan holda, innovatsion va fundamental tadqiqotlar olib borish, sohaning nazariy va amaliy muammolarini bilish, davr uchun dolzarb, hal etilishi lozim bo'lgan va takomillashtirish talab etiladigan yo'nalishlarga doir mavzularni aniqlay olish;

ilmiy-tadqiqotlarni o'tkazish va yangi ilmiy hamda amaliy natijalarni olish;

zamonaviy tadqiqot metodlari va metodologiyasi, ta'lim-tarbiyaga doir nazariyalar, konsepsiylar, ilg'or tajribalardan foydalanish;

ilmiy muammolarni hal etishning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish **malakalariga ega bo'lishi kerak.**

### **Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatida:**

ma'naviy-ma'rifiy ishlarni rejalashtira olishi, uni tashkil etish metodikasini egallash, o'rganuvchilar orasida sog'lom ma'naviy muhitni tashkillashtirish;

o'quvchilarda mafkuraviy va axborot xurujlariga qarshi immunitetni yuzaga keltirish metod va texnologiyalarini bilishi;

globallahuv sharoitida kechayotgan jarayonlarda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan oqilona foydalana olish, turli diniy va missionerlik ta'sirlarga tqrashi ma'rifiy va milliy immunitetni rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot tadbirlarini tashkil qila bilish;

faoliyat olib borayotgan tashkilotlarda ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha individual suhbat o'tkazish;

milliy urf-odat va marosimlarni o'tkazishda, umuminsoniy qadriyatlar, mehrmuruvvat, bag'rikenglik, vatanparvarlik, sadoqat kabi yuksak insoniy fazilatlarni ochib berish **malakalariga ega bo'lishi kerak.**

#### **Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:**

mutaxassislik fanlari muammolari bo'yicha ilmiy seminarlarni tashkil etish, loyihalar yuzasidan takliflar bilan chiqish;

oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida mutaxassislikka oid tayyorgarlik yo'nalishida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish mahoratiga ega bo'lishi;

zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish;

mutaxassislik fanlari bo'yicha mashg'ulotlarni o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-metodik hujjatlarni tayyorlash va rasmiylashtirish;

mutaxassislik fanlari bo'yicha mashg'ulotlarni o'tkazish uchun o'qitishning texnik va kompyuter vositalaridan foydalanish;

mustaqil ta'lim va ijodiy izlanish natijasida o'qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi yangi shakl, metodlar vositalarni o'zlashtirish va o'z-o'zini rivojlantirish;

elektron axborot ta'lim muhitida ta'lim jarayonini pedagogik loyihalashtirish;

elektron (e-learning) va mobil (m-learning) o'qitish uchun o'quv-metodik majmualarni ishlab chiqish;

uzluksiz ta'lim tizimining DTS, Davlat talablari va boshqa o'quv-me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish **malakalariga ega bo'lishi kerak.**

#### **2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.**

"Ustoz-shogird" uslubini bilish va amaliyotda qo'llay bilishi;

milliy g'oya va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning bog'liqligini va uning asosiy maqsadlarini anglashi;

ilmiy-tadqiqot jarayonini tavsiflash, xulosalarni ta'riflash va olingan natijalarni baholash, empirik va nazariy tadqiqot usullarini farqlash, kengaytirilgan tadqiqot rejasini ishlab chiqish, fundamental, amaliy, innovatsion loyihalarning bir-biridan farqini bilishi;

ta'limga texnologik yondashuv, o'quv maqsadlarini aniqlashtirishi, pedagogik faoliyatni oqilona rejalashtirishi va tashkil etishi;

axborot tizimlarini tashkil etishi va boshqarishi;

amaldagi qonunchilik normalarini qo'llash orqali huquqiy masalalalarni hal qilishi lozim.

mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasini egallashi;

oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida mutaxassislikka oid tayyorgarlik yo'nalishida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish mahoratiga ega bo'lishi;

zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish va o‘tkazish;

mutaxassislik fanlari bo‘yicha mashg‘ulotlarni o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan o‘quv-metodik hujjatlarni tayyorlash va rasmiylashtirish;

mutaxassislik fanlari bo‘yicha mashg‘ulotlarni o‘tkazish uchun o‘qitishning texnik va kompyuter vositalaridan foydalanish;

mustaqil ta’lim va ijodiy izlanish natijasida o‘qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi yangi shakl, metodlar vositalarni o‘zlashtirish va o‘z-o‘zini rivojlantirish;

elektron axborot ta’lim muhitida ta’lim jarayonini pedagogik loyihalashtirish;

elektron (e-learning) va mobil (m-learning) o‘qitish uchun o‘quv-metodik majmualarni ishlab chiqish;

uzluksiz ta’lim tizimining DTS, Davlat talablari va boshqa o‘quv-me’yoriy hujjatlarni ishlab chiqish **malakalariga ega bo‘lishi kerak.**

Magistratura mutaxassisligi o‘quv rejasni va fanlar dasturlari bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi hamda kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablarga muvofiq, talabalar majburiy va tanlov fanlarini o‘zlashtirishi, amaliyotlarni o‘tishi va natijada kasbiy faoliyatida zarur bilim, ko‘nikma va malaka kompetensiyalarini egallashini ta’minlovchi mazmunda ishlab chiqiladi.

O‘quv rejasni kredit-modul tizimi asosida shakllantiriladi. Bunda o‘quv jarayoni grafigi, haftalar kesimida o‘qish vaqtini, attestatsiyalar, amaliyotlar, tatillar, semestrlar bo‘yicha o‘tiladigan “Umummetodologik fanlar”, “Mutaxassislik fanlari”, mashg‘ulotlar turlari, ajratilgan soatlar, kreditlar, fanlar kodi, Davlat attestatsiyasi va boshqalar ko‘rsatiladi.

O‘quv rejalgarda kiritiladigan majburiy va tanlov fanlar turdosh oliy ta’lim muassasalar bilan hamkorlikda tayanch oliy ta’lim muassasalari tomonidan belgilanadi.

### **3. Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.**

Ta’lim mutaxassisligi bo‘yicha quyidagi amaliyotlar o‘tkaziladi:

Malakaviy amaliyot - umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg‘unlashtirish, tegishli amaliy ko‘nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

Ilmiy amaliyot - oliy ta’lim muassalaridagi ta’lim jarayonlarini tashkillashtirish bilan tanishish, ya’ni bo‘limlar strukturasi va vazifalari, o‘quv jarayonini tashkil qilishdagi va o‘quv jarayonining me’yoriy hujjatlari, pedagogik faoliyatning o‘quv va ilmiy mahorat ko‘nikmalarini o‘rganish, ta’lim muassalarida o‘tkaziladigan ilmiy ishlarda qatnashish, tanlab olingan fan bo‘yicha amaliyot davrida vazifalarni bajarish (rahbar nazorati ostida), shu fanni o‘tish bo‘yicha uslubiy reja ishlab chiqishdan iboratdir.

Mutaxassislik bo‘yicha malaka amaliyot nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy jarayonlari bilan uyg‘unlashtirish, tegishli amaliy ko‘nikma va malakalar,

tadqiqotchilik kompetentsyalarini shakllantirish maqsadida o'quv jarayonidan ajralgan holda 4 hafta amalga oshiriladi.

Magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash ITI va IPI natijalari asosida qo'lga kiritilgan ilmiy natijalarni umumlashtitish maqsadida o'quv jarayonidan ajralgan holda 10 hafta amalga oshiriladi.



#### 4. Fanlar katalogining tuzilishi:

| T.r.                                       | Fanning malakaviy kodi | O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari                              | Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda | Kredit miqdori | Semestri |
|--|------------------------|---|-------------------------------------|----------------|----------|
| <b>1.00</b>                                |                        | <b>Majburiy fanlar</b>  |                                     |                |          |
| 1.01                                       | ITM1205                | Ilmiy tadqiqot metodologiyasi   | 150                                 | 5              | 2        |
| 1.02                                       | YO'TSTTI1105           | Yangi O'zbekiston-Taraqqiyot strategiyasi, ta'lim tizimidagi islohotlar | 150                                 | 5              | 1        |
|  |                        | <b>Jami</b>   | <b>300</b>                          | <b>10</b>      |          |
| <b>Ingliz tili va adabiyoti yo'nalishi</b> |                        |   |                                     |                |          |
| 1.03                                       | OTMFO'M 1105           | Oliy ta'limda mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi               | 150                                 | 5              | 1        |
| 1.04                                       | KYIT12310              | Kasbga yo'naltirilgan ingliz tili                                       | 300                                 | 10             | 2, 3     |
| 1.05                                       | MQT 1305               | Madaniyatlar qiyosiy tipologiyasi                                       | 150                                 | 5              | 3        |
| 1.06                                       | LTM 1405               | Lingvovididaktik tadqiqot metodlari                                     | 150                                 | 5              | 4        |
| 1.07                                       | ChL 1405               | Chog'ishtirma lingvistika   | 150                                 | 5              | 4        |
|  |                        | <b>Jami:</b>  | <b>1200</b>                         | <b>40</b>      |          |
| 2.00                                       |                        | <b>Tanlov fanlar</b>  | <b>600</b>                          | <b>20</b>      |          |
| 2.00                                       |                        | <i>Tanlov fanlar</i>  | 600                                 | 20             |          |
|  | Kvalifikatsiya         | Pedagog-tadqiqotchi. Ingliz tili va adabiyoti fani o'qituvchisi.        |                                     |                |          |
| 3.00                                       |                        | <b>Ilmiy faoliyat</b>   | <b>1800</b>                         | <b>60</b>      | (2,4)    |
|  |                        | <b>HAMMASI:</b>   | <b>3600</b>                         | <b>120</b>     |          |
| <b>Nemis tili va adabiyoti yo'nalishi</b>  |                        |   |                                     |                |          |
| 1.03                                       | OTMFO'M 1105           | Oliyta'limdamutaxassislikfanl arinio'qitishmetodikasi                   | 150                                 | 5              | 1        |
| 1.04                                       | KYIT12310              | Kasbga yo'naltirilgan ingliz tili                                       | 300                                 | 10             | 2, 3     |
| 1.05                                       | MQT 1305               | Madaniyatlar qiyosiy tipologiyasi                                       | 150                                 | 5              | 3        |
| 1.06                                       | LTM 1405               | Lingvovididaktiktadqiqotmetodlari                                       | 150                                 | 5              | 4        |
| 1.07                                       | ChL 1405               | Chog'ishtirmalingvistika  | 150                                 | 5              | 4        |
|  |                        | <b>Jami:</b>  | <b>1200</b>                         | <b>40</b>      |          |
| 2.00                                       |                        | <b>Tanlov fanlar</b>  | <b>600</b>                          | <b>20</b>      |          |
| 2.00                                       |                        | <i>Tanlov fanlar</i>  | 600                                 | 20             |          |
|  | Kvalifikatsiya         | Pedagog-tadqiqotchi. Nemis tili va adabiyoti fani o'qituvchisi.         |                                     |                |          |
| 3.00                                       |                        | <b>Ilmiy faoliyat</b>   | <b>1800</b>                         | <b>60</b>      | (2,4)    |
|  |                        | <b>HAMMASI:</b>   | <b>3600</b>                         | <b>120</b>     |          |
| <b>Koreys tili va adabiyoti yo'nalishi</b> |                        |   |                                     |                |          |
| 1.04                                       | MFO'M 1105             | Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi                                     | 150                                 | 5              | 1        |

|      |                  |   |             |            |       |
|------|------------------|---|-------------|------------|-------|
| 1.05 | KL1305           | Kompyuter lingvistikasi   | 150         | 5          | 3     |
| 1.06 | GMTNvaAM<br>1305 | Germenevtika: matn talqinlari<br>nazariyasi va amaliyoti        | 150         | 5          | 3     |
| 1.07 | LMA1405          | Lingvomadaniyatshunoslik<br>asoslari                            | 150         | 5          | 4     |
|      |                  | <b>Jami:</b>  | <b>900</b>  | <b>30</b>  |       |
| 2.00 |                  | <b>Tanlov fanlar</b>  | <b>900</b>  | <b>30</b>  |       |
| 2.00 |                  | <i>Tanlov fanlar</i>  | <b>900</b>  | <b>30</b>  |       |
| 3.00 | Kvalifikatsiya   | Pedagog-tadqiqotchi. Koreystili va adabiyoti fani o'qituvchisi. |             |            |       |
|      |                  | <b>Ilmiy faoliyat</b>   | <b>1800</b> | <b>60</b>  | (2,4) |
|      |                  | <b>HAMMASI:</b>   | <b>3600</b> | <b>120</b> |       |

## Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

---

### Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistraturaning o'quv reja va fan dasturi (magistratura dasturi), profil, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv sikli, malaka talablari, kompetensiya, modul, kasbiy faoliyat sohasi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat turi, amaliyot, amaliyot obyekti, kadrlar sifati, yuklama, yuklama hajmi



**Kelishuv varag‘i**

**Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta’lim muassasalari  
hamda kadrlar iste’molchilari**

**ISHLAB CHIQILGAN:  
Nizomiy nomidagi Toshket davlat pedagogika universiteti**

**Rektor**  **A.Kirgizbayev**

2024-yil «20» 04

M.O.



**KELISHILDI:**

O‘zbekiston Respublikasi  
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy ta’limni  
rivojlantirish tatqiqotlari markazi  
Direktor  **M.Boltabayev**  
2024-yil «01» 08



O‘zbekiston Respublikasi  
Maktabgacha va maktab ta’limi ta’lim  
vazirligi huzuridagi  
Respublika ta’lim markazi  
Direktor  **Sh.Xudaykulov**  
2024-yil «20» 04

M.O.



Jizzax davlat pedagogika universiteti  
Rektor  **Sh.Sharipov**  
2024-yil «01» 08



Chirchiq davlat pedagogika universiteti  
Rektor  **G.Muxamedov**  
2024-yil «20» 07

M.O.

